

“GULISTON”NING O‘ZBEK TILIDAGI DASTLABKI IKKI TARJIMASI

Rahmatulloyev Ahtam A’zam o’g’li

Termiz davlat universiteti, uchinchi bosqich tayanch doktoranti.

Annotatsiya: *Gulistan, translation, Uzbek language, Ogahiy, Sayfi Saroiy Ushbu maqolada Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asari va uning o’zbek tiliga qilingan dastlabki ikki tarjimasi, tarjimadagi o’zgarishlar va qo’shimchalar o’rganildi va xulosalar bildirildi.*

Kalit so’zlar: *Guliston, tarjima, o’zbek tili, Ogahiy, Sayfi Saroiy*

Анотация: *В статье рассматривается произведение Саади Ширازی «Гулистон» и его первые два перевода на узбекский язык, а также изменения и дополнения в переводе, а также представлены выводы.*

Ключевые слова. *Гулистан, перевод, Узбекский язык, Огахий, Сайфи Саройй*

Annotation: *This article examines Saadi Shirazi's "Guliston" and its first two translations into Uzbek, as well as the changes and additions in the translation, and presents conclusions.*

Keywords. *Gulistan, translation, Uzbek language, Ogahiy, Sayfi Saroiy*

Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy fors adabiyotining zabardast shoirlaridan, fors adabiyoti g’azal mulkining sultoni hisoblanadi. Bu haqda Mavlono Abdurahmon Jomiy ta’kidlab shunday deydi:

Dar nazm se tan payombaronand,
Har chand “lo nabiya ba’diy”.
Avsofu, qasidavu, g’azalro,
Firdavsiyu, Anvariyu, Sa’diy.

Shuning o’zidan ham Sa’diy Sheroziyning qay darajada lirik shoir ekanligini bilib olish mushkul emas. Nazmiy asarlar bilan bir qatorda, Sadiyning qalamiga mansub nasriy asarlar ham miqdor jihatdan ko’p hisoblanadi. Bular qatorida jahon miqyosida bebaho asar sanaladigan, hali hanuz o’z qadrini yuqotmagan pandnoma asar “Guliston” ham bor. Ko’pchilik asarlarda ta’kidlanishicha Sa’diy o’z umrining uchdan bir qismini safarlarda o’tkazgan. Umrining so’nggi yillarida, safarining nihoyasida “Bo’ston” va “Guliston” asarlarini yozishga kirishadi. “Guliston” Sa’diyning ikkinchi asari bo’lib, hijriy 656 (milodiy 1258) yilda yozilgan. U debochadan tashqari sakkiz bobni o’z ichiga oladi: “Podshohlar siyrati zikrida”, “Darveshlar axloqi zikrida”,

“Qanoat fazilati zikrida”, “Xomushlig‘ favoyidi zikrida”, “Ishq va yigitlik zikrida”, “Tavongarlik va darveshlik bayonida”, “Suhbat va xizmat odobi zikrida”.

“Guliston” asari shu kunga qadar dunyoning bir necha tillariga tarjima qilinib, o‘zga tilli xalqlar orasida sevib mutolaa qilinadigan kitoblar sarasiga kiradi. Hatto hozirgi kunga qadar dunyoning ko‘plab oliy o‘quv yurtlarida va maktabu madrasalarida darslik sifatida qo‘llanilib kelinmoqda.

“Guliston” XVI asrning birinchi yarmidayoq Yevropa tillariga tarjima qilinib, tarqala boshlagan. U ilk bor fransuz diplomati Andre Ris tomonidan fransuz tiliga o‘g‘irilib, 1634 yili Parijda nashr etilgan. Bu tarjima juda erkin bajarilgan va mukammal bo‘lmasa-da, ko‘pchilikning e‘tiborini tortadi. Helen Ouliaei Nia ushbu tarjima borasida o‘zining “Humanities” xalqaro jurnalidagi maqolasida shunday yozadi: “Hindistonga Britaniya qo‘shinlari kirgan paytlarda Sa‘diyning “Guliston” asaridan maktablarda fors tilini o‘rgatishda asosiy matn kitobi sifatida foydalanilgan. O‘sha paytlari yevropalik sharqshunos hamda diplomatlarda “Guliston”ni Yevropaga tanishtirish istagi paydo bo‘lgan. 1634 yili amalga oshirilgan fransuz diplomati Andre Risning tarjimasini esa uni butun Yevropada mashhur bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Keyingi davrda boshqa g‘arb tillariga qilingan tarjimalarda, asosan, shu tarjima yo‘l-yo‘riq vazifasini o‘tadi”³⁴.

Darhaqiqat, buning isboti o‘laroq aytish mumkinki, 1635 yili asar fransuzchadan nemis tiliga tarjima qilingan. Shundan keyin boshqa g‘arb tillari, shuningdek, rus tiliga ham o‘g‘irilgan. Rus tilida “Guliston” 1957–1959 yillarda tarjima holda bosilib chiqdi. Sa‘diyning ijodidan mashhur nemis olimi Herman Vamberi, buyuk nemis shoiri va mutafakkiri I. V. Gyote, mashhur fransuz faylasufi va adibi Volter ilhomlangan hamda ba‘zi she‘rlarida undan foydalanishgan. Taniqli fransuz masalchisi Lafonten ham “Guliston”dagi hikoyat va naqllardan o‘z masallarida foydalangan. Ulug‘ rus shoiri A. S. Pushkin ham Sa‘diy ijodiga katta baho bergan.

"Guliston" asari shu kunga qadar to‘rt marotaba o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Ushbu tarjimalar turli davrlarda bo‘lganligi sababli, turlicha tarjima qilingan va tarjimonlar tomonidan ushbu tarjimalar o‘ziga xos nomlangan.

"Guliston"ning dastlabki o‘zbekcha (qadimgi turkiy tili) tarjimasini hijriy 793 (milodiy 1390-1392) yilda Xorazm o‘lkasidan bo‘lgan Sayfi Saroyi tomonidan qilingan. Ushbu tarjima to‘g‘risida yetuk o‘zbek olimlaridan biri J. Sharipov to‘xtalib, shunday fikr bildirgan: "Tarjima tili sodda va shirali bo‘lib, odamni o‘ziga jalb etadi"³⁵. Shu tariqa "Guliston" o‘zbek tiliga tarjima qilingan Sa‘diyning dastlabki, fors-tojik adabiyotining ikkinchi asari hisoblanadi. "Guliston"dan oldinroq Nizomiy

³⁴ Ouliaei Nia Helen. A comparative Study of Saadi’s Golestan and Johanson’s Rasselass // Humanities. – Colorodo, 2008. – № 2. – P. 113–125

³⁵ Шарипов Ж. Ўзбекистонда таржима таърихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 482.

Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" asari Qulibi Xorazmiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan edi.

Sayfi Saroyi "Guliston"ni tarjima qilib uni "Guliston bit turkiy" ya'ni "Turkcha Guliston" deya nomlaydi³⁶. "Guliston"ning dastlabki tarjimasi XV asr turkiy tilida yozilgan va bu haqda muallifning o'zi ta'kidlab o'tkan. XV asr turkiy tili anchayin dushvorligidan balki, bu tarjima biror marotaba chop etilmagan. Hozirgi zamon kitobxonlari uchun qadimgi turkiy tilni to'liq tushunib yetish masalasi qanchalik kun tartibidagi muammo ekanligini anglab yetish qiyin emas. Jahon adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri sanalmish Alisher Navoiyning "Mahbu-ul-qulub" asari tarjima shaklida nashr etilib, unda shunday yozilgan: "Hozirgi adabiy tilimizga yaqinlashtirilga tekst"³⁷. Shundan kelib chiqib Sayfi Saroyining "Guliston" tarjimasi ham bugungi kunda tushunilish jihatidan dushvorligi sabab nashr etilmagan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Sayfi Saroyi "Guliston"ni to'liq tarjima qilgan. Mutarjim asarning boblarini turkiyda shu zaylda nomlagan:

Birinchi bob - "Podshohlarning xislati". Ammo muallif ushbu bobning forsiy nomlanishini "Dar sifati podshohon" deya keltirganki bu unchalik sahih emas³⁸.

Ikkinchi bob - "Darveshlarning axloqi" ("Dar axloqi darveshon");

Uchinchi bob - "Qanoatning yaxshiligi" ("Dar fazilati qanoat");

To'rtinchi bob - "Xomushlikning foydasi" ("Dar favoidi xamushā");

Beshinchi bob - "Ishq va yoshlik" ("Dar ishq va çavonā");

Olinchi bob - "Notavonlik va qarilik" ("Dar za'f va pirā");

Yettinchi bob - "Tarbiyaning ta'siri" ("Dar ta'siri tarbiyat");

Sakkizinchi bob - "Suhbat odobi" ("Dar odobi so'hbat").

Ko'rinib turibdiki tarjimon boblarning nomlanishi, she'riy parchalar va matnlarning tarjimasida to'g'ri yondashgan. Ammo, J.Sharipovning ta'kidlashicha tarjimon gohida hikoyalarni qisqartirib, gohida esa qo'shimchalar kiritadi. "Hikoyat" so'zini tarjimada qo'llamaydi. Sayfi Saroyi tarjimasi bilan bu asar turkiy xalqlarga yanada manzur bo'ldi. O'zbek adabiyoti va adabiy tilining, o'zbek nasri va tarjima adabiyotining qimmatli yodgorligiga aylandi.

Bu asar o'z vaqtida yoshlarga yangicha yo'nalishda ta'lim berish va an'anaviy milliy ruh asosida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Sayfi Saroyi "Guliston" tarjimasiga "Iso mo'jizasi" nomli hikoyatni kiritadi.

"Guliston"ning ikkinchi tarjimasi XIX asrda Xorazmlik mashhur shoir, tarixchi va tarjimon Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy tomonidan qilingan.

³⁶ Саъдий Шерозий. Гулистон (С. Саройи). – Анкара: 1954. – Б. 373.

³⁷ Навоий А. Маҳбуб-ул-қулуб. – Тошкент: Фафур Фулом, 1983. – Б. 247.

³⁸ Саъдий Шерозий. Гулистон (С. Саройи). – Анкара: 1954. – Б. 373.

Muhaqqiqlarning ta'kidlashicha, Ogahiy tarjimasi badiiylik va shoirlik ruhiyati talqini jihatidan afzalroqdir. Ogahiy "Guliston"dagi 187 hikoyatning 25 tasini tarjima qilmaydi, asardagi nazmiy satrlardan 522 baytini nazmda tarjima qilgan bo'lsa, qolganlarini nasrda ifoda etgan. O'zbek adabiyotshunoslaridan biri V. Zohidov Ogahiy tarjimasi xususida shunday deydi: "Ogahiyning badiiy tarjimalari so'zning to'liq ma'nosida, ijodiy mohiyati bilan maxsus izlanishlarni talab qiladi. Shoir tarjima matnlarida gohida o'zining hikoyatlari va she'rlarini kiritadi. Ogahiy nodir tarjimalari bilan o'zbek adabiy tili va uslubini boyitdi"³⁹. Muhammadrizo Ogahiy mazkur tarjimasidagi muqaddimada "Guliston" tarjimasiga qo'l urishiga ila ko'rsatib, shunday bayon qiladi: "... shahzoda Muhammad Rahim to'ra... faqirg'a shayx Sa'diy rahmatullohi alayhning "Guliston" otlig' kitobin turk(iy) tili bila tarjima qilmoq xizmatini buyurdi... Agarchi faqir ushbu ovonda bir shiddatlig' kasal mehnatidin nihoyatsiz notavon va g'oyatsiz xastajon erdim, ammo ul janobning mundaq marhamati dorushshifosidin sihat, balki quvvat sharbati lazzatin totib, baqadri hol bu xujastafol xizmatni butkarmakka majolim boricha jiddu jahd ishin zuhurg'a yetkurdim"⁴⁰.

Bu navbatda Ogahiy ushbu ma'suliyatli va sharafli ish uning zimmasiga qanday yuklatilganligi va uning o'zi bu shahzodaning bu taklifidan qanchalik xursand bo'lganligini bayon etib o'tmoqda. Darhaqiqat Ogahiyning fors adabiyoti, xususan, Sadiyning "Guliston"i bilan juda yaxshi munosabatda bo'lganligi ushbu fikrlardan ham bilishimiz mumkin. Bu asarning qanchalik ulkan ahamiyatga ega ekanligini bilgan Ogahiy ushbu manbadan zamondoshlari va kelajak avlod ham bahramand bo'lishlarini xohlardi.

Ogahiy ham o'z navbatida tarjimada boblarni nomlashda o'ziga xos yondoshgan. Ogahiy tarjimasida boblarning nomlanishi quyidagi tartibda:

- Avvalg'i bob: "Podshohlar siyrati zikrida";
- Ikkinchi bob: "Darveshlar axloqi zikrida";
- Uchinchi bob: "Qanoat fazilati zikrida";
- To'rtinchi bob: "Xomo'shlik favoidi zikrida";
- Beshinchi bob: "Ishq va yigitlik zikrida";
- Oltinchi bob: "Qarilig' za'fi zikrida";
- Yettinchi bob: "Tarbiyat ta'siri zikrida";
- Sakkizinchi bob: "Suhbat va xizmat odobi haqida"⁴¹.

³⁹ Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан. – Тошкент: ЎзССР давлат бадий адабиёт ва санъат, 1961. – Б. 76.

⁴⁰ Муҳаммадризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар 9-жилд, Огаҳий таржимасидаги "Гулистон" ва "Ҳафт пайкар". – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 19.

⁴¹ Муҳаммадризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар 9-жилд, Огаҳий таржимасидаги "Гулистон" ва "Ҳафт пайкар". – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 28.

Boblarning nomlanishini tarjimada ifodalanishidan, Ogahiyning tarjima uslubi borasida fikr bildirish mumkin. Ogahiy o'z tarjimasida barcha uchun tushunarli bo'lishi maqsadida mufassal bayon bilan bo'lsada, Sa'diyning fikrlariga o'z fikrlarini ilova etadi. Misol uchun Sa'diy Sheroziy sakkizinchi bobni "Dar odobi so'hat" deb nomlagan bo'lsa, Ogahiy tarjimasida "Suhbat va xizmat odobi zikrida" deb nomlangan. Ko'rinib turibdiki Ogahiy "xizmat" so'zini qo'shgan, bu esa Sa'diyning "Guliston"ida mavjud emas. Ogahiyning tarjimadan asosiy maqsadi Sa'diyning mulohazalarini o'zbek tilida bayon etish edi. Ogahiy ham Sayfi Saroyi ham garchi imkon darajasida Sa'diy uslubida, kitobxonga tushunarli darajada gohida qisqartirib, gohida esa qo'shimchalar kiritib tarjima qilishgan bo'lishsada Sa'diyning maqsadlarini konkret tarzda to'laligicha ifodalab bera olishmagan. Ushbu ikki tarjima orasida o'xshash jihatlar borligi haqida J.Sharipov: "Sayfi Saroyi va Ogahiy tarjimalari ko'p ham farq qilmaydi, faqat uslub jihatidan"⁴² farqlanishini ta'kidlab o'tgan.

Xulosa. Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asari shu kunga qadar o'zbek tiliga to'rt marotaba tarjima qilingan (XIV asrda Sayfi Saroyi, XIX asrda Ogahiy, XX asrda Mullo Murodxo'ja, shuningdek, Rustam Komilov, G'afur G'ulom, Shoislom Shomuhamedovlar) bo'lib, Sayfi Saroyining tarjimasidan tashqari barcha tarjimalarning nusxasi mavjuddir. Lekin bu tarjimalarning birortasi hajm hihatidan ham tuzilish jihatidan ham asliyatga mos emas. Chunki bu tarjimalarda ko'zga ko'rinarli darajada qisqartirishlar mavjud.

Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning shoir sifatida qoldirgan merosi bilan bir qatorda tarjimon sifatida qoldirgan merosi ham anchani tashkil etadi. Ogahiy fors-tojik adabiyotining shoir va yozuvchilari, hamda ularning asarlarini juda yaxshi o'rganib chiqqani natijasida o'zidan keyingi avlodlarga ulkan meros qoldirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ouliaei Nia Helen. A comparative Study of Saadi's Golestan and Johanson's Rasselass // Humanities. – Colorodo, 2008. – № 2. – P. 113--125
2. Шарипов Ж. Ўзбекистонда таржима таърихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 482.
3. Саъдий Шерозий. Гулистон (С. Саройи). – Анқара: 1954. – Б. 373.
4. Навоий А. Махбуб-ул-кулуб. – Тошкент: Гафур Фулом, 1983. – Б. 247.
5. Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан. – Тошкент: ЎзССР давлат бадиий адабиёт ва санъат, 1961. – Б. 76.
6. Муҳаммадризо Эрнийозбек ўғли Огаҳий. Асарлар 9-жилд, Огаҳий таржимасидаги "Гулистон" ва "Ҳафт пайкар". – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 19.

⁴² Шарипов Ж. Ўзбекистонда таржима таърихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 482.